Bugun Namanganda “FARG‘ONA VODIYSIDA FAN VA TEXNOLOGIYA” ilmiy Konferensiyasi o'z ishini boshladi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 80 yillik yubeleyi hamda Farg‘ona vodiysida fan va texnologiyalar yo‘nalishlarini rivojlantirish muhokamasiga bag‘ishlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi va Namangan viloyati hokimligi bilan hamkorlikda 11-12 may kunlari viloyatimizda “FARG‘ONA VODIYSIDA FAN VA TEXNOLOGIYA” ilmiy konferensiyasi o‘tkazilmoqda.

Konferensiya doirasidagi asosiy tadbirlarda Farg‘ona vodiysida fan va texnologiyani rivojlantirish masalalari faol muhokama qilinib, olib borilayotgan ilmiy tadqiqod ishlarining samaralari, taklif etilayotgan loyihalarning mazmun-mohiyatiga ilm-fan vakillarining e’tiborini qaratish orqali mavjud muammolarga ilmiy tomondan yechim topish maqsad qilingan.